

UO'K 581.582.232/275.574

KATTA FARG'ONA KANALI ALGOFLORASINING TAKSONOMIK TAHLILI

M. Yuldasheva, M. Nazarov, M. Djorabayeva
Farg'ona davlat universiteti

Annotation

Maqolada, Farg'ona vodiysining Katta Farg'ona magistral kanali algoflorasi turlar tarkibining 2019 - 2022 yillar oralig'idagi taksonomik taxlili bayon etilgan. Bunda suvo'tlarining 6 ta bo'lim, 10 ta sinf, 17 tartib, 28 ta oila, 35 ta turkumga xos 100 ta tur va tur xillari (78 - tur, 14 - variatsiya, 8 - forma) aniqlandi. Ulardan *Cyanophyta* - 11, *Chrysophyta* - 1, *Bacillariophyta* - 78, *Pyrrophyta* - 4, *Euglenophyta* - 3, *Chlorophyta* - 3 ta tur va tur xillarini tashkil etdi.

Kalit so'zlar: algoflora, taksonomiya, muhit, oqim, tur va tur xillari, suv havzasasi, ekologik, tabiiy muhit, suv o'tlari.

KIRISH. Tadqiqot ishida Farg'ona vodiysida joylashgan Katta Farg'ona magistral kanalining algoflorasi o'r ganildi.

Katta Farg'ona magistral kanali (KFMK) Norin va Qoradaryo o'zanlaridan boshlanuvchi umumiyligi 350 km. (suv o'tkazish imkoniyati 211 m³/sek, sug'oriladigan maydoni 213.7 ming) bo'lган kanal[8].

ASOSIY QISM. Geomorfologik belgilar bo'yicha suv havzasasi oqimlarga bo'lindi, algologik namunalarni yig'ish uchun kuzatuv nuqtalari belgilandi.

Bu xududning bosh qismi Qoradaryo bo'lib, uning suvi o'ta loyqa, shu sababli namunalar suv qirg'oqlaridan va suvning tiniqligi bor bo'lган 3 - 5 sm li chuqurliklardan yig'ildi.

Suv havzalarining algoflorasini o'r ganish orqali suvo'tlarining turli ekologik omillar ta'sirida rivojlanishini aniqlash imkonini beradi [1].

Katta Farg'ona magistral kanali algoflorasi turlar tarkibining taksonomik tahlili kanal algoflorasi o'ziga xos tarkibga egaligini ko'rsatdi. Suvo'tlarining 6 ta bo'lim, 10 ta sinf, 17 tartib, 28 ta oila, 35 ta turkumga xos 100 ta tur va tur xillari (78 - tur, 14 - variatsiya, 8 - forma) aniqlandi. Ulardan *Cyanophyta* - 11, *Chrysophyta* - 1, *Bacillariophyta* - 78, *Pyrrophyta* - 4, *Euglenophyta* - 3, *Chlorophyta* - 3 ta tur va tur xillarini tashkil etdi[2-7].

Cyanophyta bo'limi suvo'tlaridan - *Microcystis aeruginosa*. f. *sphaerodictyoides* Elenk., *Rivularia Beccariana* (de Not.) Born. et. Feah, *Oscillatoria deflexoides* Elenk. et Kossinsk, *O. lacustris* (Kleb.) Geitl., *O. rupicola* Hansg., *Romeria chlorine* va boshqalar uchradi.

Chrysophyta bo'limi suvo'tlaridan - *Ochromonas charkowinsis* Marv.

Bacillariophyta suvo'tlaridan - *Melosira varians* Ag, *Cyclotella stelligera* Cl. Et Grun., *Stephanodiscus Hantzschii* Grun, *Tetracyclus rupestris* (A.Br.) Grun., *Meridion circulare* Ag., *Diatoma elongatum* (Lyngb.) Ag., *D. heimale* (Lyngb.) Heib., *Fragilaria atomus* Hust., *Ceratoneis arcus* (Ehr.) Kuetz.,, *Synedra actinostroides* Lemm kabi tur va tur xillari uchradi.

Euglenophyta bo'limi suvo'tlaridan - *Trachelomina oblonga* Lemm., *Phacus parvulus* Klebs, *Euglenopsis vorax. f. minor* (Skuja) Popova kabi turlar.

Pyrrophyta bo'limi suvo'tlaridan - *Cryptomonas aborto* Conr., *Woloszynskia vera* (Lind.) Thompson , *Glenodinium gymnodinium* Penard, *Peridinium cinctum. F. Westii* (Lemm) Lef. kabi tur va tur xillari.

Chlorophyta bo'limi suvo'tlaridan - *Chlorella luteoviridis* Chodat., *Cladophora glomerata. var.glomerata* Kuetz., *Cosmarium trilobulatum* Reinsch. kabi tur va tur xillari uchradi.

XULOSA. 2019-2021 yillardagi ilmiy tekshirish ishlari natijasida Katta Farg'ona kanalida 100 ta tur va tur xillari (78 - tur, 14 - variatsiya, 8 - forma) aniqlandi. Ulardan *Cyanophyta* - 11, *Chrysophyta* - 1, *Bacillariophyta* - 78, *Pyrrophyta* - 4, *Euglenophyta* - 3, *Chlorophyta* - 3 ta tur va tur xillarini tashkil etdi.

Katta Farg'ona kanalida **doimiy ravishda suvi juda loyqaligini** inobatga olgan holda suvo'tlarining tur va tur xillari sonini oz miqdorda 100 ta uchrashi aniqlandi. Ko'kyashil, diatom va evgilema, yashil suvo'tlari barcha ekologik omillar yig'indisi bilan birga haroratning o'zgarishiga bog'liq holda algoflorada tur va tur xillari soni jixatidan diatom suvo'tlari etakchilik qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1] Алимжанова Х.А., Шаймкулова М.А. Альгофлора реки Акбууры и ее значение в оценке качества воды. – Ташкент, Фан, 2008. – 17– 20, 34 - 37 с.
- [2] Определитель пресноводных водорослей СССР. Вып. I. 1951; II. 1953; III. 1954; IV. 1951; VI. 1954; VII. 1955; VIII. 1959; X. (1) 1986; XI. 1982; XII.
- [3] Музрафов А.М. Флора водорослей водоемов Средней Азии. – Ташкент: Изд-во Наука. 1965. – 580 с.
- [4] Эргашев А.Э. Закономерности развития и распределения альгофлоры в искусственных водоёмах Средней Азии. - Ташкент: Фан, 1976. -360с.
- [5] Юлдашева Муаттархон and Давронжон Саминжонов. Taxonomical and ecological analysis of the large Fergana channel algoflora in the spring season // doi.org/10.47100/co nferences.v1i1.1321." research support center conferences. - C. 119-124.
- [6] Юлдашева М., Тўлқинов А. The south Fergana canal in the spring season taxonomic and ecological properties of algoflora // doi. org/10.47100/Conferences. v1i1. 1322 // Research support center conferences. – 2021. – С. 124-129.
- [7] Yuldasheva M., Soliyeva A. Taxonomy and ecology of spring season algoflora of the north Fergana channel // Конференции. – 2021. – С. 129-134.
- [8] Farg'ona vodiysi kanallaridan foydalanish boshqarmasi ma'lumotlari